TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

KUCHKOROV TEMURBEK ATAXONOVICH

GEOMA'LUMOTLAR VA MASOFADAN ZONDLASH TASVIRLARIGA RAQAMLI ISHLOV BERISH USULI, ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH

05.01.04 - Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent 2025

UDK: 004.42, 004.932

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

KUCHKOROV TEMURBEK ATAXONOVICH

GEOMA'LUMOTLAR VA MASOFADAN ZONDLASH TASVIRLARIGA RAQAMLI ISHLOV BERISH USULI, ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH

05.01.04 - Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T786 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Djumanov Jamoljon Xudaykulovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kabulov Anvar Vasilovich** texnika fanlari doktori, professor
	Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna texnika fanlari doktori, professor
	Babajonov Elmurod Satimbaevich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-89; faks: (+99871) 238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (385 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "03" dekabr da tarqatildi.
(2025-yil "01" 12 dagi 35 - raqamli reestr bayonnomasi).

M.M.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, professor

Dj.B.Sultanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so'ngi yillarda sun'iy yo'ldosh va uchuvchisiz uchish qurilmalari (UAV) orqali olingan multispektral, giperspektral tasvirlarga raqamli ishlov berish, sun'iy intellekt va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanib, geointellektual amaliy dasturiy majmualarni ishlab chiqish iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan atrof-muhitni kuzatish, ob-havoni prognozlash, shaharsozlikni loyihalash, transport hamda qishloq xo'jaligi kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlarini intellektual tahlil qilish orqali qishloq xo'jaligi sohasida yerdan foydalanish, ekin maydonlarini masofadan aniqlash, tasniflash va kuzatish, ekin turlari bo'yicha monitoring olib borish, yerning qayta tiklanish potensiali indeksini hamda belgilangan hudud resurslardan foydalanishni bashorat qilish kabi masalalarni hal qilish ilmiy asos va amaliy yondashuvlarni talab qiladi. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohada yangi usullar, algoritmlar va dasturiy majmualar yaratish ilgarilab bormoqda. Jumladan, masofadan zondlash ma'lumotlariga asoslangan ilovalarni ishlab chiqish, multispektral tasvirlar bilan ishlash va geoaxborot texnologiyalar asosida interaktiv geoportal ishlab chiqishda Yevropa davlatlaridan asosan Germaniya, Chexiya, Ispaniya va Shvetsariya, shu bilan birga Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, hamda Xitoy davlatlarida salmoqli ishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda ilmiy va nazariy jihatdan, raqamli ma'lumotlar infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalariga asoslangan matematik, algoritmik va dasturiy modellarini ishlab chiqish orqali geoma'lumotlarga ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish tadqiqotlari olib borilmoqda. Bu borada, asosiy e'tibor sensor tarmoqlari va chuqur o'qitish algoritmlarini uyg'unlashishi masofadan zondlash tasvirlarini tahlil qilish jarayoniga tatbiq etish, katta hajmli fazoviy ma'lumotlar bilan ishlash hamda geointellektual tizimlar yaratish muhim masalalardan hisoblanadi.

Respublikamizda geoma'lumotlar va murakkab tuzilmaga ega bo'lgan masofadan zondlash tasvirlarini raqamli ishlashda sun'iy intellekt texnologiyalari, kompyuter ko'rish, avtomatlashtirilgan o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarga ishlov berish algoritmlari hamda geoaxborot texnologiyalarini tadbiq qilish orqali raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlari samaradorliginini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda multispektral va giperspektral tasvirlarga dastlabki ishlov berish, masofadan zondlash tasvrilaridan foydalanib ekin maydonalari chegaralarini tanib olish, yerdan foydalanishni tasniflash va segmentlash kabilar asosiy vazifalar sifatida qaralgan. Shu bilan birga yuqori aniqlikdagi va murakkab tasvirlarga intellektual ishlov berish nazariyasini rivojlantirishda chuqur o'qitish, konvolyutsion neyron tarmoq arxitekturalari va modellarini takomillashtirish va geoma'lumotlarni taqdim etish uchun interaktiv geoportal ishlab chiqish hamda sohaga tadbiq qilish orqali raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-

tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4996-sonli Qarorining[1] b bandida ustuvor tarmoqlar va sohalarda, shu jumladan qishloq xo‘jaligi sohasida yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini kuzatishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash, shu bilan birga mamlakatda qishloq va suv xo‘jaligi, ekologiya, shaharsozlik va boshqa sohalarning samaradorligini oshirish uchun yerni masofadan zondlash, navigasiya tizimlari sohasida faoliyat olib borish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida kosmik faoliyatni rivojlantirish to‘g‘risida»gi PF-5806-sonli Farmonida[2] belgilangan vazifalarni bajarish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2-avgustdagi «Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-257-son Qarorida[3] qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlar holatini monitoring qilishning idoralararo axborot tizimlarini joriy etish yuzasidan qator vazifalar belgilangan. Bunda geoaxborot texnologiyalari va kosmik tasvirlarni tahlil qiladigan xizmatlarni ko‘rsatish platformasi joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, klasterlarga ajratilgan ekin maydonlari va ekinlarni mustaqil ravishda multispektral kosmik tasvirlar tahlili asosida monitoring qilish, muammolarni erta aniqlash hamda hosildorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish tizimini yaratish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Xorijiy tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasi professorlari, ilmiy tadqiqot institutlari yetakchi olimlari tomonidan sun’iy yoldosh orqali va uchuvchisiz uchish apparatlaridan olingan tasvirlar hamda raqamli qishloq xo‘jaligida geoma’lumotlar tahlil yo‘nalishlarida bir qancha ilmiy ishlar olib borishmoqda. Masalan, Scopus bazasi, SCImago portalida mavjud MDPI (Multidisciplinary Digital Publishing Institute) ilmiy jurnallar bazasiga kiruvchi ilmiy nashrlarda oxirgi o‘n yillikda (2014-2024 yillarda) masofadan zondlash yo‘nalishida 30000 ga yaqin maqola[4], shundan 1000 tadan ko‘prog‘i tahliliy maqola, 26000 dan ortiq ilmiy maqola, o‘z navbatida geoaxborot texnologiyalari va geoma’lumotlar tahlili yo‘nalishida esa 11000 dan ko‘proq ilmiy maqola[5] chop qilingan bo‘lib, shundan 765 tasi tahliliy, 9873 tasi ilmiy maqola hamda 126 tasi ilmiy anjumanlarda chop qilingan tezislar hisoblanadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, jahonda ushbu dissertatsiya mavzusi doirasida juda

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori (https://lex.uz/docs/-5297046)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida kosmik faoliyatni rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-5806-sonli Farmoni (https://lex.uz/en/docs/-4494500)

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-257-son Qarori (https://lex.uz/uz/docs/-6553993?ONDATE=15.08.2025%2000)

[4] https://www.mdpi.com/search?q=remote+sensing&year_from=2014&year_to=2024

[5] https://www.mdpi.com/search?q=GIS&year_from=2014&year_to=2024

ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, Yevropa davlatlari, AQSH, Xitoy va Yaponiya olimlari mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotganlarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi.

Xorijiy yetakchi olimlar, jumladan, Avstriya davlatining Vena texnologiyalar universiteti professori Dr. Wolfgang Wagner tomonidan masofadan zondlash tasvirlari va geoma'lumotlar asosida tuproq holati hamda yer yuzi gidrogeologik o'zgarishlarini monitoring qilish, AQSHning Kolumbiya universiteti yetakchi olim tadqiqotchisi Dr. Christopher Small tomonidan geoma'lumotlar tahlili, masofadan zondlash orqali tasniflashda spektral xususiyatlar va shaharsozlikni kuzatish, Janubiy Korolina universiteti professori Dr. John R. Jensen tomonidan atrof-muhitni monitoring qilish, Boston universiteti professori Dr. Magaly Koch tomonidan masofadan zondlash orqali gidrogeologik va geologik monitoring olib borish, suv resurslari va vegetatsiya jarayonini kuzatish, Shvetsariyaning Tyurix texnologiyalar federal universiteti professori Dr. Lars T. Waser tomonidan kosmik va UAV tasvirlari yordamida vegetatsiya jarayonini modellashtirish va kuzatish, ekinlar salomatligini kuzatish, o'rmonlar hamda atrof-muhit monitoringi, Chexiyaning Pragadagi tabiiy fanlar universiteti professori Dr. Jitka Kumhalova tomonidan esa Sentinel-2 va UAV tasvirlarini olish, tasvirlarga dastlabki raqamli ishlov berish, qishloq xo'jaligi ekinlarida vegitatsiya jarayoni kuzatish, tuproq holati va namligini monitoring qilish kabi asosiy mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy yondashuvlar, atrof-muhit monitoringi, yerdan foydalanishni tasniflash, vegetatsiya va o'simliklar o'zgarishini kuzatish, global iqlim o'zgarishini monitoring qilish, suv resurslarini o'rganish va tadqiq qilish hamda raqamli qishloq xo'jaligida multispektral va murakkab strukturalangan masofadan zondalash tasvirlariga ishlov berish, sun'iy intellekt, chuqur neyron tarmoqlari va geoaxborot texnologiyalarini joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish etarlicha o'rganilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi ham yuqorida tahlil qilingan ilmiy ishlarda kam o'rganilgan masofadan zondlangan multispektral tasvirlarni intellektual raqamli ishlash usuli, geoma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirilgan o'lchash qurilmalaridan olingan sensor ma'lumotlariga ishlov berish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda respublikamiz hududidagi ekin maydonlari uchun raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlari sifati va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqot yo'nalishida rivojlangan davlatlardagi yirik kompaniya va tashkilotlarda (Copernicus, ESA, GFW) kosmik tasvirlar va masofadan zondlash ma'lumotlarini tahlil qilish va raqamli ishlash bo'yicha bir qancha usul va modellardan foydalanib kelinmoqda. Dunyoning ko'pgina ilmiy markazlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Chexiya, Shvetsariya, Rossiya, Yaponiya va Xitoyda masofalan zondlash texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh tasvirlariga raqamli ishlov berishda chuqur o'qitish modellari va algoritmlari asosida dasturiy vositalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Taniqli xorijiy olimlar W. Wagner, Ch. Small, R. Jensen, B. Alias, Magaly Koch, Lars T. Waser, R. Karzika, D. Derksen, Mark Prit, G. Chern, V. Poulain, J. Inglada, V. Paugxon, S. Mallet, X. Saxbi, A. Stoian, Sh.B. Mansor, L. Bris, X.Z. Moxd-Shafri, A.I. Ponamarchuk, Ye.S. Cherepanova, A.N. Shixov va

J.Kumhalova va L.Tuma kabilar masofadan zondlash va sun'iy yo'ldosh tasvirlarini tahlil qilish va tasniflash sohasida, O. Ronneberger, F. Fischer, T. Broks, O. Tasar, Yu. Tarabalka, P. Alliez, Sh. Minae, Yu. Boykov, A. Plaza, D. Terzopoulos, T.K. Vangbo, X. Shen, X. Zao, J. Shi, J. Jia kabi olimlar tomonidan tasvirlarni segmentlashda, neyron tarmoqlari va chuqur o'qitish algoritmlaridan foydalanib mukrakkab tuzulmali koinot tasvirlariga ishlov berishda keng qo'llaniladigan modellar va algoritmlarni yaratishda tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

Respublikamizdagi bir qancha ilmiy tadqiqot muassasalari olimlarining ishlarida masofadan zondlash texnologiyalari, geoma'lumotlar va kosmik tasvirlarga ishlov berish algoritmlari, usullari va geoma'lumotlar bazalarini ishlab chiqishga oid ilmiy manbalarda yoritilgan masalalar ko'rib chiqilgan. Shu jumladan, geoma'lumotlar, kosmik texnologiyalar, va tasvirlarni qayta ishlashda R.Usmanov, Sh. Fozilov, X.N .Zayniddinov, U.R. Hamdamov, J.X. Djumanov, K. Seitnazarov, R. Oteniyazaov, Sh. Shokirov, I.M. Musaev, N. Xudaykulov, A. Pulatov, I. Abduraxmanovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi paytda bir vaqtning o'zida masofadan zondlangan multispektral tasvirlar, avtomatlashgan o'lchash qurilmalaridan olingan sensor ma'lumotlari, vegitatsiya indekslari qiymatlari va geomorfologik indikatorlarni geoma'lumotlar bazalarida saqlash, tasvirlar, sensor ma'lumotlari va geoma'lumotlarni sintezlash usuli orqali tahlil qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari samaradorligini aniqlash va bashorat qilish uchun intellektual usullar, modellar va alogritmlar yaratish yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Erasmus+ doirasida bajarilgan «Raqamli qishloq xo'jaligi uchun yangi va innovatsion kurslar» (2018-2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-307-son qarorida belgilangan vazifalardan «Geologik ma'lumotlar milliy geoaxborot tizimini yaratish» (2023) va № I-AT-2021-493 «Yer osti suvlarining sathini, haroratini va elektr o'tkazuvchanligini masofadan aniqlovchi innovatsion uskuna yaratish» (2022-2023) mavzularidagi ilmiy va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi geoma'lumotlar va masofadan zondlash multispketral tasvirlariga ishlov berish usuli, modellari, algoritmlari, dasturiy majmuasi hamda raqamli qishloq xo'jaligi geoportalini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

masofadan zondlash texnologiyalari, multispektral tasvirlarga raqamli ishlov berish usullari, yerdan foydalanishni an'anaviy va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tasniflash algortimlari hamda raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini taqdim qilish yondashuvlarini tahlil qilish;

raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini tashkil qilishning masofadan zondlash tasvirilarga raqamli ishlov berish va geoaxborot modeliga asoslangan usulini ishlab chiqish;

Sentinel platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan multipektral tasvirlarga dastlabki ishlov berish, sifatini yaxshilash modellari va algoritmlarini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarda ekin maydonlari chegaralarini aniqlash va yerdan foydalanishni tasniflashning chuqur o'qitishga asoslangan modifikatsiyalangan modeli va algoritmlarini ishlab chiqish;

sensorlar ma'lumotlari, katta hajmli masofadan zondlash ma'lumotlari va multispektral indekslar asosida yerning qayta tiklanish potensiali indeksini hisoblash modeli va algoritmini ishlab chiqish;

geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlarini geoportalga integratsiya qilish algoritmlari va qishloq xo'jaligi yerlari samaradorligini baholash dasturiy majmuasining funksional tuzilmasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sentinel platformasi va UAV dan olingan multispektral tasvirlar, tajribadan olingan masofadan zondlash ma'lumotlarini raqamli ishlash va geoma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tasvirlarga raqamli ishlov berish modellari va algoritmlari, geoma'lumotlar nazariyasi, chuqur o'qitishga asoslangan modellar, sensorlar ma'lumotlari hamda geoma'lumotlarga ishlov berish algoritmlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tasvirlar va signallarga raqamli ishlov berish nazariyasi, matematik modellashtirish nazariyasi, vektorlar va matritsalar nazariyasi, masofadan zondlash texnologiyalari va geoma'lumotlar tahlili usullari, fazoviy ma'lumotlar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, chuqur neyron tarmoqlari hamda sonli hisoblash usullari nazariyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish va geoaxborot texnologiyalari nazariyasi asosida qishloq xo'jaligi yerlari holatini baholashning ko'p bosqichli tahlil usuli ishlab chiqilgan;

kengaytirilgan konvolyutsion neyron tarmoq asosida Sentinel-2 platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan multispektral tasvirlarning sifatini yaxshilash modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

multispektral tasvirlarning fazoviy va spektral aniqligini oshirish asosida qishloq xo'jaligi yerlari kontur chegaralarini avtomatik aniqlash hamda yerdan foydalanishni tasniflashning modifikatsiyalangan TL-ResUnet modeli yaratilgan;

katta hajmli masofadan zondlash ma'lumotlari va avtomatlashgan o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarga raqamli ishlov berish asosida yerning qayta tiklanish potensiali indeksini hisoblash modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlarini yagona geoportalga integratsiya qilishning intellektual tizimi asosida qishloq xo'jaligi yerlari samaradorligini baholash algoritmi va agroindikatorlarni xaritalashtirishga mo'ljallangan dasturiy majmuaning funksional tuzilmasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sentinel-2 platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan (UAV) olingan multispektral masofadan zondlash tasvirlariga dastlabki ishlov berish algoritmlari va dasturiy vositasi ishlab chiqildi, bu tasvirlarni fazvoiy va radiometrik tuzatish jarayonlarining aniqligini 10-12% gacha oshirish imkonini berdi;

ekin maydonlari chegaralarini aniqlashda chuqur o'qitish va konvolyutsion neyron tarmoq texnologiyalariga asoslangan algoritm ishlab chiqildi, natijada multispektral tasvirlardan agrar maydonlar kontur chegaralarini topish aniqligi 9 foizga oshirildi va yerdan foydalanish monitoringi jarayonlari tezlashtirildi;

yer resurslarini segmentlash va tasniflash uchun modifikatsiyalangan TL-ResUnet neyron arxitekturasi asosida dasturiy vosita ishlab chiqildi, bu esa sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali yer qoplami va yerdan foydalanishni turlari bo'yicha tasniflash va segmentlashda aniqlikni oshirish hamda qayta ishlov berish vaqtini kamaytirish imkonini berdi;

geoma'lumotlar va multispektral tasvirlarga asoslangan yerning qayta tiklanish indeksini hisoblash va samaradorlikni baholash algoritmi ishlab chiqildi, bunda multispektral tasvirlar yordamida masofadan monitoring qilish, o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash orqali qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini tahlil qilish samaradorligini 10-15% ga oshirish imkonini yaratdi;

masofadan zondlash va geoma'lumotlar natijalarini integratsiyalovchi raqamli geoportal va dasturiy majmua ishlab chiqildi, bu qishloq xo'jaligi yerlarining holatini onlayn baholash, agroindikatorlar xaritalarini shakllantirish hamda raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini avtomatlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari Sentinel-2 platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan real multispektral tasvirlar asosida eksperimental sinovlardan o'tkazilgan, hamda ularning tasvirni tasniflash aniqligi, tahlili qat'iy matematik va statistik ifodalar orqali tasdiqlangan. Ishlab chiqilgan TL-ResUnet modeli va yerdan qayta foydalanish indeksini hisoblash algoritmlari natijalari SNAP, MATLAB, Python (TensorFlow, Keras) va QGIS muhitlarida tajriba asosida sinovdan o'tkazilib, mavjud klassik modellar (DeepLab) bilan taqqoslash orqali ularning aniqlik ko'rsatkichi ustunligi izohlangan.

Multispektral tasvirlarni raqamli ishlash va geoaxborot tahlil modullari QGIS va Google Earth Engine platformalarida testdan o'tkazilgan bo'lib, ko'p qatlamli geoma'lumotlarni tahlil qilish aniqligi (NDVI, NDWI, EVI indikatorlari asosida) tajriba ma'lumotlari bilan mosligi orqali ishonchligi asoslangan. Tadqiqot davomida olingan natijalar xalqaro ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, konferensiya ma'ruzalar va dasturiy guvohnomalar bilan tasdiqlanib, ularning amaliy tadbiqi raqamli agromonitoring tizimlarini ishlab chiqish jarayonida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geoma'lumotlar va masofadan zondlash orqali olingan multispektral tasvirlarni raqamli ishlash, tasvirlar sifatini oshirish va tasniflashning nazariy asoslarini istiqbolli rivojlanishida ishlab chiqilgan usul, modellar va algoritmlarning hissa qo'shishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati masofadan zondlash tasvirilariga raqamli ishlov berish va geoaxborot modeliga asoslangan usul, modellar hamda algoritmalari bo'yicha yaratilgan dasturiy majmua va geoportalni raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini tashkil qilish jarayonida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi. Dissertatsiya tadqiqotlari doirasida geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlariga raqamli ishlov berish usuli, algoritmlari va dasturiy majmuasi asosida:

masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish va geoaxborot texnologiyalari nazariyasi asosida qishloq xo'jaligi yerlari holatini baholashga tayangan ko'p bosqichli tahlil usuli, kengaytirilgan konvolyutsion neyron tarmoq asosida Sentinel-2 platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan multispektral tasvirlar sifatini yaxshilash modeli hamda algoritmi O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligining «O'zbekgidrogeologiya» Davlat muassasasining «Orolbo'yi gidrogeologik ekspeditsiyasi» kuzatuv quduqlarida yer osti suvi monitoring tizimiga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 2025 yil 23 iyundagi 33-8/4337-son ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq xo'jaligi monitoringida mavzuli ma'lumotlarni ko'p qatlamli tahlil va vizualizatsiya qilish imkoniyati yaratilgan;

multispektral tasvirlarning fazoviy aniqligi va spektral barqarorligini oshirish asosida qishloq xo'jaligi yerlari kontur chegaralarini aniqlash va yerdan foydalanishni tasniflashning fazoviy segmentatsiyasiga asoslangan TL-ResUnet modeli, katta hajmli masofadan zondlash ma'lumotlari va sensorlardan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash algoritmi "Uzinfocom" davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integratori faoliyatiga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 2025 yil 23 iyundagi 33-8/4337-son ma'lumotnomasi). Natijada, yerdan foydalanishni avtomatik tasniflashda ekin maydonlari, uning holatini baholash, agromaydonlardagi kontur chegaralarini aniqlashda tezkorlik va aniqlikni oshirish imkonini bergan;

geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlarini yagona geoportalga integratsiya qilishning intellektual tizimi asosida qishloq xo'jaligi yerlari samaradorligini baholash, yerdan qayta foydalanish potensiali indeksini hsioblash algoritmi va agroindikatorlarni xaritalashtirishga mo'ljallangan dasturiy majmuaning funksional tuzilmasi Xorazm viloyati Hazorasp tuman xokimyati qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 2025 yil 23 iyundagi 33-8/4337-son ma'lumotnomasi). Natijada, multispektral tasvirlar yordamida masofadan monitoring qilish, o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash orqali qishloq xo'jaligi yerlarini raqamli xaritalash, ekin maydonlarini tahlil qilish va hosildorlikni baholash samaradorligi 10-15 foizga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari 18 ta, jumladan, 10 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta ilmiy maqola, shundan 10 ta xalqaro (6 ta Scopus) va 11 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan, mavzu doirasida 1 ta monografiya, 2 ta grifli o'quv qo'llanma chop qilingan va 6 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari va ilmiy farazi, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy natijalar, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi va ishning sinovdan o'tishi, natijalarning e'lon qilinganligi, foydalanilgan model va algoritmlar, qo'llanish sohasi va amalga oshirish bosqichlari qisqacha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Masofadan zondlash tasvirlariga raqamli ishlov berish, sensor tarmoqlari va geoaxborot modeliga asoslangan raqamli qishloq xo'jaligi tizimining nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari»** deb nomlangan bo'lib, masofadan zondlash texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari va raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarining xalqaro tajribalar tahlili, geoma'lumotlar infratuzilmasi va multispektral tasvirlarga raqamli ishlov berishning ilmiy asoslari va yondashuvlari, UAV va sun'iy yo'ldosh multispektral tasvirlariga ishlov berish geoaxborot texnologiyalarining nazariy asoslari hamda raqamli agro-geoportalni shakllantirish bosqichlari va raqamli qishloq xo'jaligi konsepsiyasi bo'yicha tadqiqot maqsadi, muammoning qo'yilishi va ularni hal etishning ilmiy yondashuvlari keltirib o'tilgan.

Tahlillarga ko'ra, ekin maydonlaridan foydalanish bo'yicha yetakchi davlatlar Hindiston, Xitoy va AQSH davlatlari hisoblanadi va hozirgi kunda umumiy holda yer yuzidagi aholi jon boshiga 0,2 *ga* o'lchamdagi ekin maydoni to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan solishtirilganda jahonda aholi soni oshganligi sababli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ekin maydonlari qiymati sezilarli darajada 0,24 *ga* dan 0,2 *ga* gacha kamaygan. Bu esa mavjud ekin maydonlari samaradorligini doimiy kuzatish va tahlil qilish, bunda yuqori aniqlikdagi va murakkab tasvirlarga intellektual ishlov berish, chuqur o'qitish, konvolyutsion neyron tarmoq arxitekturalari va modellarini takomillashtirish, avtomatlashgan o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarga ishlov berish va geoma'lumotlarni taqdim etish uchun interaktiv geoportal ishlab chiqish hamda sohaga tadbiq qilish orqali raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga ehiyoj mavjudligini anglatadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari va ularning hosildorligini rejalashtirish jarayonini avtomatlashtirish uchun geoma'lumotlar bazasi va kerakli ma'lumotlarning yetishmasligi, zarur texnologiyalar to'liq ishlatilmasligi sohada raqamlashtirish jarayonlarini sezilarli darajada orqada qoldiradi. Bunda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan hududlar multispektral va giperspektral tasvirlarini raqamli ishlashning modifikatsiyalangan algoritmlari yetarlicha qo'llanilmaganligini kam o'rganilgan masalalardan biri sifatida qarash mumkin. Sensorlardan olingan ma'lumotlar va tasvir ma'lumotlarini integratsiyalash va hudud holatining yerdan qayta foydalanish yoki tiklanish potensiali indeksini hisoblash algoritmlari yetarlicha joriy qilinmaganligi esa hududni kompleks baholash va uning samaradorligini aniqlashda kamchiliklarni vujudga keltiradi.

Bunda sun'iy yo'ldosh orqali olingan tasvirlarning sifatini bosqichma-bosqich oshirishning modifikatsiyalangan va konvolyutsion neyron tarmoqlari

modellari va algoritmlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Foydalanuvchilar va mutaxassislar uchun turli xil xizmatlarni ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar tasvirlarini raqamli ishlash natijalarini ochiq geoaxborot tizimlarida vizuallashtirish uchun interaktiv geoportal mavjud emasligi yoki to'liq joriy qilinmaganligi o'rganilgan tahlillar asosida namoyon bo'ldi. Quyidagi jadvalda raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini geoportal va geozxizmatlar orqali taqdim qiluvchi mavjud tizimlar asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirma tahlili keltirilgan.

1-jadval

Mavjud tizimlar va amaliy yechimlar tahlili

Ko'rsatkich /Tizim	Onesoil.ai	NASA Harvest	Copernicus CLMS	Agrohub Uzbekistan	ISRO Bhuvan
Ma'lumot manbasi	Sentinel-2, Mandsat	Sentinel, Landsat, MODIS	Sentinel-2, SPOT	Sentinel-2	IRS, CartoSat
Multispektral indekslarni hisoblash	Mavjud	Mavjud	Mavjud	NDVI, EVI, sug'orish tahlili	Mavjud
SI modellari	Mavjud	Mavjud	Faqat statik tahlil	Mavjud emas	Mavjud emas
Foydalanuvchi interfeysi	Professional GIS	Tadqiqotchilar uchun	WebGIS	Fermer va tadqiqotchilar uchun	Davlat monitoring
Yerning qayta tiklanish indeksini hisoblash	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas
Ochiqlik darajasi	Ochiq	Qisman ochiq	Ochiq	Ochiq	Cheklangan

Geoma'lumotlar (*geofazoviy ma'lumotlar, geospatial data*) yer yuzasidagi hududlar, obyektlar, hodisalar va boshqa xususiyatlarni tavsiflovchi joylashuv ma'lumotlariga asoslangan ma'lumot turi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Geoma'lumotlar klassifikatsiyasi.

Tadqiqotlar doirasida va amaliy jihatdan foydalanish bo'yicha geoma'lumotlar asosan 4 ta toifaga, masofadan zondlash ma'lumotlari, ya'ni rastrli ma'lumotlar, vektroli ma'lumotlar, GPS ma'lumotlari hamda geografik metama'lumotlar toifalariga ajratiladi. Mazkur dissertatsiya ishi asosan masofadan zondlash orqali shakllantirilgan rastrli ma'lumotlarga raqamli ishlov berish, geoportal xizmatlari uchun vektorli ma'lumotlardan foydalanish hamda metama'lumotlar bilan ishlash tamoyillari va usullarini o'z ichiga oladi.

Geofazoviy ma'lumotlar o'zgaruvchilar tegishli bo'lgan fazoviy obyekt turiga va bu o'zgaruvchilarni o'lchash darajasiga qarab tasniflanadi. Tadqiqotda Z_1, Z_2, Z_3, ..., Z_k lar geofazoviy obyektni ifodalash uchun k ta o'zgaruvchi deb qaralgan va S esa nuqta yoki maydonning joylashuvi hisoblanadi. Bunda umumiy holda geoma'lumotlar matritsasi quyidagicha ifodalanadi.

$$\begin{bmatrix} z_1(1) & z_2(1) & \cdots & z_k(1) & \mathbf{s}(1) \\ z_1(2) & z_2(2) & \cdots & z_k(2) & \mathbf{s}(2) \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ z_1(n) & z_2(n) & \cdots & z_k(n) & \mathbf{s}(n) \end{bmatrix} \begin{matrix} \text{Case } 1 \\ \text{Case } 2 \\ \vdots \\ \text{Case } n \end{matrix} \qquad (1)$$

bu yerda, $\{z_1(i), z_2(i), \ldots\ldots\ldots, z_k(i) | \boldsymbol{s}(i)\}_{i=1,\ldots,n}$, $i=1,\ldots\ldots,n$ gacha bo'lgan holatlar uchun mos holda k ta o'zgaruvchiga mos ma'lumotlar va geoma'lumotni ifodalaydi. Bunda $s(i)$vektor bo'lib, i ta holat uchun geoma'lumotlarni ifodalaydi. Geoma'lumotlar modelini qurish bevosita vaqtga bog'liq jarayon bo'lganligi sababli, ma'lumotlar matritsasi ham vaqtga bog'liq holda quriladi.

Tadqiqot ishida masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish va qishloq xo'jaligi yerlari holatini baholashning geoaxborot texnologiyalari asoslangan ko'p bosqichli tahlil usuli taklif qilingan. Mazkur taklif qilinayotgan usulning tashkil etuvchi va bir-biriga uzviy bog'liq bosqichlari quyidagicha ifodalanadi (2-rasm). Masofadan zondlash multispektral tasvirlarini shakllantirish, tasvirlarga dastlabki ishlov berish, tasvir sifatini yaxshilashning super-resolution modeli dissertatsiyaning ikkinchi bobida, agromaydonlardagi kontur chegaralarini aniqlash va yerdan foydalanishni tasniflashning modifikatsiyalangan modeli uchunchi bobda keltirilgan va ilmiy yangiliklar sifatida asoslangan.



2-rasm. Masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish va qishloq xo'jaligi yerlari holatini baholashning geoaxborot texnologiyalari asoslangan ko'p bosqichli tahlil usulining asosiy bosqichlari.

Usulning avtomatlashgan o'lchash qurilmalari va sensorlardan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash va geoma'lumotlar bazasini loyihalash bosqichi to'rtinchi bobda, yerning qayta tiklanish indeksi, samaradorlikni baholash, geointellektual yondashuvga asoslangan geoportal integratsiyasi bosqichi mos ravishda dissertatsiyaning so'ngi bobida asoslangan.

Geointellektual yondashuv asosidagi geoportal integratsiyasining umumiy kontseptual modeli (2) ko'rinishida ifodalanadi.

$$\mathcal{G}: (D, S) \overset{\text{AI + GIS}}{\rightarrow} \{L(x, y), C_i, E_i\}, \tag{2}$$

bunda $\mathcal{G}$ – geointellektual portal funksiyasi bo'lib, barcha modullarni yagona axborot muhitida birlashtiradi. Demak, umumiy holatda tizimga kiruvchilar χ bilan, chiquvchi ma'lumotlar Υ bilan belgilanadigan bo'lsa, unda $\chi = D \times S$ va $\Upsilon = \mathcal{L} \times C \times \mathcal{E}\ (sinflar\ \times konturlar\ \times indekslar)$ ko'rinishida umumlashtiriladi va geoportal tizimi $\mathcal{G}$ quyidagicha ifodalanadi

$$\mathcal{G}: \chi \longrightarrow \Upsilon\ (geoportal\ natijalari) \tag{3}$$

Tadqiqot doirasida kiruvchi parametlar sifatida atrof-muhit parametrlari ($SP_1^{P_i}$), suv va tuproq sharoitlari ($SP_2^{P_i}$), vegitatsiya indekslari ($SP_3^{P_i}$), multispektral tasvirlar ($SP_4^{P_i}$) va geomorfologik indikatorlar ($SP_5^{P_i}$) mos ko'rinishlarda ifodalangan. Bu yerda $P_i, i = \{1 \dots \dots n\}$ har bir parametrlar sinfidagi alohida parametrlarni ifodalaydi.

Dissertatsiya ishining **«Sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlarni shakllantirish, raqamli ishlov berish va sifatini yaxshilashga oid intellektual apparat-dasturiy modellar»** deb nomlangan ikkinchi bobida, sun'iy yo'ldosh qurilmalarida masofadan zondlash tasvirlarini shakllantirish bosqichlari va multispektral tasvirlarga ishlov berish usullari, UAV qurilmari yordamida masofadan zondlash tasvirlarini shakllantirish bosqichlari, modeli va ishlov berish algoritmlari, ikki o'lchovli masofadan zondlash tasvirlarining matematik modellarini shakllantirish, multiparametrli aniqlik tahlili va multispektral kanal xususiyatlarini qo'llash, multispektral tasvirlar sifatini yaxshilashning konvolyutsion neyron tarmoqlariga asoslangan superaniqlik modeli va panxromatik kanaldan foydalanib tasvir aniqligini oshirish algoritmini ishlab chiqish kabi ilmiy va amaliy natijalar ma'lumotlari keltirilgan.

Mazkur tadqiqot ishi uchun respublikamizning shimoliy qismida joylashgan Xorazm viloyati hamda natijalarni solishtirish uchun janubi-sharqiy chekkasida joylashgan Andijon viloyati hududlari tanlab olingan (3-rasm).



3-rasm. Sentinel-2 platformasi yordamida olingan tasvirlar bo'yicha Xorazm va Andijon viloyati hududlari ko'rinishi.

Xorazm viloyati respublikamizning shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib, yer maydoni 6,1 ming km^2 ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1,4 foizini egallaydi. Xorazm viloyatdagi qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni esa 408,7 ming gektarni, umumiy ekin maydoni esa 262,1 ming gektarni tashkil etadi. Asosiy qishloq xo'jaligi paxtachilik, g'allachilik, uzumchilik, chorvachilik va sabzavotchilikni o'z ichiga oladi. Xorazm viloyati hudud tasvirini shakklantirishda 2023-07-06 sanasidagi Sentinel-2B sun'iy yo'ldoshining 3 ta Level-1C ma'lumotlari olingan. Sentinel-2B multispektral tasvirlari SNAP dasturi orqali 4 ta alohida mozayka birlashtirilgan bo'lib (4-rasm), hosil bo'lgan katta hajmli tasvirdan tadqiqot obyektida tanlangan hudud tasvirini shakllantirish uchun shapefile qatlamini birlashtirish yordamida ajratib olingan. Ma'lumotlar to'plamida 13 ta spektral kanal mavjud.



4-rasm. Tanlangan hududning ortomozaykasi va rastrli tasvirini shakllantirish (Xorazm viloyati).

Xorazm viloyati uchun ham tanlangan hudud uchun 4 ta alohida Sentinel-2 ma'lumotlarini birlashtirib, keyinchalik yaxlit *.geotiff* formatidagi rastrli ma'lumotlar bilan ishlash uchun SNAP dasturidan foydalanib tanlangan hudud ortomozaykasi hosil qilinadi. Masofadan zondlash tasvirlarini umumiy matematik ifodalanishi quyidagi formula orqali belgilanadi.

$$I(x, y, \lambda_i), \tag{4}$$

bu yerda, x va y mos ravishda fazoviy koordinatalar qiymati bo'lib, $I(x, y)$ belgilangan hudud uchun (masalan *1km x 1km*) nurlanish yoki aks ettirishni ifodalovchi piksel qiymatini ko'rsatadi, λ_i esa masofadan zondlash ma'lumotlaridagi kanallar sonini bildiradi ($i = 1 \ldots\ldots n$). Demak bitta kanaldan iborat bo'lgan masofadan zondlangan tasvir $I(x, y)$ bilan belgilanadi. Misol uchun Sentinel-2 missiyasi asosida olingan masofadan zondlash tasvirlari $I(x, y, \lambda)$, ko'rinishida ifodalanib, Sentinel-2 da kanallar soni 13 ta bo'lganligi sababli, bu yerda $\lambda = \{\lambda_1, \lambda_2, \ldots, \lambda_{13}\}$ ko'rinishida ifodalanadi. Umumiy holda esa matematik model quyidagicha ifodalanadi.

$$I_\lambda(x, y) = \int_{\lambda_{min}}^{\lambda_{max}} \rho(x, y, \xi) \cdot \Phi(\xi, \theta, \psi) \cdot \tau(\xi) d\xi + \varepsilon(x, y) \tag{5}$$

$I_\lambda(x, y)$ koordinatalaridagi i-spektral kanal uchun qayd etilgan intensivlik; $\rho(x, y, \xi)$ – obyektning spektral qaytaruvchanlik funksiyasi (reflectance); $\Phi(\xi, \theta, \psi)$ – quyosh nurlanishining spektral zichligi, bu yerda θ va ϕ – burchak koordinatalari; $\tau(\xi)$ – atmosfera orqali o'tish koeffitsienti (transmittance); λ – elektromagnit to'lqin uzunliklari diapazoni; $\varepsilon(x, y)$ – shovqin (noise) komponentasi. Masofadan zondlash tasvirlarini ifodalashda o'z navbatida sensor turi (aktiv, passiv), tasvirning aniqligi (*fazoviy, radiometrik, davriy, spektral*) ham hisobga olinishi mumkin. Bu yerda λ_i multispektral tasvirlarni shakllantirishdagi kanallar soni va to'lqin uzunligi diapazonini anglatadi. Soddaroq qilib aytganda, diskret tasvirni $\boldsymbol{m} \times \boldsymbol{n} \times \boldsymbol{k}$ o'lchamlardagi gipermatritsa **C** sifatida belgilash mumkin, bu yerda *i,j,k* mos ravishda indeks sifatida belgilanadi, *i* va *j* pixellar indeksi, *k* esa kanallar indeksi sifatida ishlatiladi. Bu yerda $m = n = k = 3$ holat uchun tasvir berilgan bo'lib, $C(m, n, k)$ uchun C_{ijk} bitta pixel qiymatini ifodalaydi.



5-rasm. Masofadan zondlash tasvirlaridan foydalanish bosqichlarining umumiy sxemasi.

Tasvirlarni tahlil qilish, tanib olish, tasniflash va murakkab tuzilmali tasvirlarni yaxshiroq tahlil qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda tasvirlarning tiniqligi va aniqligini oshirish juda muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Murakkab tuzilishga ega sun'iy yo'ldosh tasvirlarida yaqinroq masshtablarda tanib olish, tasniflash kabi vazifalarni past aniqlikdagi tasvirlar orqali yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun past, o'rta va yuqori aniqlikdagi tasvirlar turli xil imkoniyatlarga ega va tasvir o'lchamlari aniqlik bilan bog'liq turli vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot ishi doirasida panxromatik va

multispektral kanallarni birlashtirish algoritmi va super aniqlik modeli asosida ishlab chiqilgan algoritmlar taklif qilingan.

Multipektral kanallarning yorqinligini oshirish uchun panchromatik kanalni birlashtirish amalga oshiriladi. Panxromatik kanal va multispketral kanallarni birlashtirish umumiy algoritmi quyida keltirilgan (6-rasm). Algoritmga ko'ra, belgilangan hudud uchun multispektral tasvir va aynan ushbu sensorlarga mos panxromatrik kanal ma'lumotlari olinadi. Rangli tasvir I_{rgb} ko'rinishdan I_{hvs} ko'rinishga o'tkaziladi.

Bundan asosiy maqsad, HVS (hue, value, saturation) kombinatsiyasidagi «value» ya'ni tasvir pikselining asosiy ma'lumotlari va intensivligini saqlaydigan kanal ma'lumotlari birlashtirish uchun kerak bo'ladi. Multispektral va panxromatik kanallar birlashtirilishidan oldin, kiruvchi ma'lumotlarning bir-biriga mosligi kross-korrelyatsiya usuli yordamida tekshiriladi va korrelyatsiya koeffitsenti R > 0,9 dan yuqori bo'lgan holat uchun keyingi qadamga o'tkaziladi, aks holda kiruvchi ma'lumotlar qayta namunalash (resampling) uchun yuboriladi. Shart qanoatrilganidan keyin tasvirning HVS kanallar kombinatsiyasidagi V kanali P kanal bilan almashtiriladi va natijaviy I_{hvs} tasvir an'anaviy RGB ko'rinishga o'tkaziladi.



6-rasm. Panxromatik va multispektral kanallarni birlashtirish orqali tasvir aniqligini oshirish algoritmi.

Tadqiqot ishida aniqligi past tasvirlar sifatini yaxshilash uchun konvolyutsion neyron tarmoq tamoyillariga asoslanga sepur-aniqlik modeli va o'qitish oson bo'lgan DAN algoritmi taklif qilingan va natijalar olingan (7-rasm). Super aniqlik modilini baholashda model va algoritmning aniqligidan tashqari ularning o'lchami va tezligi ham muhim ahamiyatga ega. EDSR parametrlari soni ko'pligi sababli tezligi WDSR va DAN modellariga qaraganda sekinroq ishlaydi. Ushbu super-

aniqlik usullari uchun tajribalar Ubuntu operatsion tizimida, Intel i9 11900K, 64 GB RAM va GeForce RTX 3070 Ti bilan jihozlangan kompyuterda o'tkazildi. Ushbu usullar samaradorligi PSNR, IFC va LPIPS kabi tasvir sifatini baholash mezonlari yordamida baholandi (2-jadval).

2-jadval

Tasvirni yaxshilash algoritmlarining PSNR qiymatlarining solishtirish

Tasvir sifatini yaxshilash algoritmi	PSNR	IFC	LPIPS
Bilinear interpolyatsiya	21.23	1.942	0.3127
Bikubik interpolyatsiya	22.08	2.034	0.2952
DWT asosidagi algoritm	22.92	2.128	0.2601
DL asosidagi EDSR	28.87	3.881	0.1949
DL asosidagi WDSR	29.13	4.109	0.1961
DAN (taklif qilingan)	**30.19**	**4.381**	**0.1713**

7-rasm. Sun'iy yo'ldosh tasvirlarini super-aniqlik uchun chuqur o'rganish algoritmlarining solishtirish natijasi.

Dissertatsiya ishining **«Masofadan zondlash tavirlarini tasniflashning chuqur o'qitishga asoslangan modellari va algoritmlari»** deb nomlangan uchinchi bobida, sun'iy neyron tarmoqlari yordamida tasvirlarni tasniflash usullari, modellari va algoritmlari, tasvirlarni segmentlashning chuqur o'qitishga asoslangan algoritmlari tavsifi va oldindan o'qitilgan model bilimlarini yerdan foydalanishni tasniflash modeliga birlashtirishning dastlabki natijalari keltirilgan. Bundan tashqari, CNNga asoslangan UNet arxitekturasi, residual neyron tarmoq (ResNet), bilimlarni transfer qilish asosida o'qitish (*transfer learning – TL*) kabi yondashuvlarni birlashtirish orqali sun'iy yo'ldosh tasvirlarida yerdan foydalanishni tasnishlashning modifikatsiyalangan semantik segmentlash TL-ResUNet modeli va algoritmi, Mask R-CNN algoritmida ekin maydonlarini kontur chegaralarini aniqlash algoritmi hamda olingan natijalar keltirilgan.

Tasvirlardan ma'lumotlarni ajratib olish, tasvirdagi obyektni tanib olish turli sohlardagi masalalarni yechish uchun katta ahamiyatga ega. Hozirda ushbu yo'nalishda juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, transport va shunga o'xshash sohalarda aniq yechimlar olinmoqda. Tasvirdan kerakli ma'lumot yoki xususiyatlarni ajratib olish uchun sinflashtirish, yoki tasvirda bir nechta sinfga tegishli obyektlar bo'lsa, segmentlash masalalarini yechish talab qilinadi. Quyidagi rasmda ko'rsatilganidek kiruvchi parametr sifatida turli xildagi ma'lumotlar qaralishi mumkin (8-rasm), holatni aniq ifodalash maqsadida kiruvchi tasvir sifatida 144×144 o'lchamdagi tasvir olingan.



8-rasm. Ko'p sathli neyron tarmoq tuzilishi.

UNet arxitekturasi sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlarni qayta ishlash asosida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar, binolar, foydalanilmayotgan yerlar kabilarni tasniflash segmentlash orqali yechilgan. Bunda UNet modeli bilan birgalikda oldindan o'qitilgan model (ImageNet, VGG16) koeffitsentlaridan foydalanib sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlani segmentlash sxemasi taqdim qilingan (9-rasm).



9-rasm. UNet va oldindan o'qitilgan model koeffitsentlaridan foydalanib tasvirni segmentlash sxemasi.

Ushbu taklif qilingan model Inter-IIT-CSRE o'quv tanlanma asosida NVidia, GeForce GTX 1080Ti, RAM 64 GB va GPU 11 GB texnik parametrli hisoblash tizimida o'qitilgan bo'lib, boshqa modellarga qaraganda kam sonli o'quv tanlanma asosida, kam vaqt sarflagan holda 3 ta sinf uchun model IoU ko'rsatkichi bo'yicha 94,3% aniqlikka erishilgan.

Tadqiqot ishida tasvir sifatini oshirish hamda yerdan foydalanishni tasniflash jarayonida ishlatilgan va takomillashtirilgan CNN modellarida kengaytirilgan konvolutsion qatlamlaridan foydalanilgan (10-rasm). Ushbu kengaytirilgan konvolutsiya arxitekturasida *dilation rate* nomli parametr kiritilgan bo'lib, bu konvolyutsion filtr orasidagi bo'sh joylarni bildiradi. Agar ushbu qiymat 2 ga teng bo'lganda 3x3 filtr oddiy konvolutsion qatlamlardagi 5x5 o'lchamdagi filtrga mos keladi, ammo parametrlari soni 9 taga teng bo'ladi. Kengaytirilgan konvolutsiya amali semantik segmentlash masalalari uchun juda mos tushadi. Kengaytirilgan konvolutsiya amalining asosiy yutuqlari qirralarni aniqroq ajratib olishi hamda segmentlangan tasvirning tiniqroq ko'rinishini hosil qiladi.

10-rasm. Oddiy va kengaytirilgan konvolutsion qatlam. ***a*** – oddiy konvolutsion qatlam (Filtr: 3×3, oraliq : 1); ***b*** – kengaytirilgan konvolutsion qatlam (Filtr: 3×3, dilation rate : 2).

Dissertatsiyaning ushbu bobida chuqur o'rganishga asoslangan semantik segmentatsiya usullari o'rganilib, yerdan foydalanish semantik segmentlash asosida tasvniflashning takomillashtirilgan TL-ResUNet modeli va algoritmlari ishlab chiqilgan.

Past va o'rta aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlari sun'iy yo'ldosh tasvirlarini segmentatsiyalashda kutilgan aniqlikni bermasligi mumkin hamda segmentlash masalasi uchun begilangan ma'lumotlar to'plamini hosil qilish qiyin vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli o'qitish uchun ma'lumotlar yetishmasligini oldini olish uchun tahlil qilish ko'rilgan tadqiqotlarga mos holda qisman nozaratli o'rganish strategiyasidan foydalanilgan. Tadqiqot ishi doirasida yerdan foydalanishni tasniflash jarayoni aniqligi va samaradorligini oshirish maqsadida, segmentlash uchun ishlatiladigan UNet arxitekturasi va ResNet chuqur neyron tarmoqlari kombinatsiyasidan foydalanilgan. Bu yerda ResNet-50 modeli ham tasniflash vazifasini bajarish uchun, ham UNet arxitekturasini modifikatsiya qilish orqali «encoder» qismi uchun ishlatilgan. Natijada yerdan foydalanishni tasniflashning modifikatsiyalangan UNet modeli ResNet neyron tarmog'ini o'qitish usullar, jumladan tasodifiy og'irlik koeffitsentlari va ImageNet o'quv tanlanmasi orqali oldingan o'qitilgan model koeffitsentlari yordamida o'qitilgan.

Dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan TL-ResUnet modelini o'qitish uchun ochiq manbalardan olingan sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalanilgan.

3-jadval

O'quv tanlanmaning asosiy xususiyatlari

O'quv tanlanma	Sinflar soni	Fazoviy aniqlik, m	Tasvirlar soni
DeepGlobe	7	1,24	1,146
Dstl satellite	10	1,24	57
LandCoverNet	7	10	1,980
Augmented (sintetik tasvirlar)	7	-	6,517
JAMI			**9,700**

Ushbu modelni o'qitish jarayonida uning samaradorligi va aniqligini oshirish hamda o'qitish vaqtini qisqartirish maqsadida, o'qitilgan koeffitsentlari (bilimlarni) transfer qilish asosida modelni o'rgatish algoritmidan foydalanilgan. Shu sababli modifikatsiyalangan UNet modeli TL-ResUNet deb nomlangan va chuqur o'qitishga asoslangan arxitekturasi keltirilgan (11-rasm).



11-rasm. Taklif qilinayotgan ResNet-50 encoder bilan modifikatsiyalangan UNet modeli.

Ishlab chiqilgan TL-ResUNet modelini baholash uchun umumiy ma'lumotlar to'plamining 20% qismini tashkil etadigan validatsiya to'plamidan foydalanilgan. Model natijalarini (12-rasm) baholash uchun *precision*, *recall*, *F1 ko'rsatkichi* va *Jaccard indeksi* kabi me'zonlardan foydalanilgan.



12-rasm. TL-ResUnet modeli natijasi.

Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblashda berilgan sinflarni tasniflash jarayonida hosil bo'ladigan «confusion matrix» ko'rsakichlari asosida aniqlanadi. Taklif qilingan modelning boshqa mavjud modellarga nisbatan umumiy IoU ko'rsatgichi bo'yicha afzalligini 4-jadvalda qiyosiy natijalar asosida ko'rish mumkin.

4-jadval

Taklif qilingan modelning solishtirma natijasi

Model nomi	IoU ko'rsatkichi
Baseline	55.19
ClassmateNet	69.87
DFCNet	71.31
DeepLabv3	74.52
DeepLabv3+	75.6
TL-ResUNet (taklif qilingan model)	81.0

Qishloq xo'jaligi maydonlari chegaralarini aniq ajratib olish yerdan foydalanish va tuproq qoplamini aniqlash hamda ularni boshqarishni rejalashtirishda muhim ro'l o'ynaydi. Ekin maydonlari chegaralarini qo'l mehnati yordamida chizib chiqish vaqt va mehnat talab qiladigan jarayondir. Tadqiqot ishi doirasida masofadan zondlangan multispektral tasvirlarni chuqur konvolyutsion neyron tarmoq modelidan foydalanib Mask R-CNN modelining takomillashtirilgan arxitekturasi taklif etilgan (13-rasm).



13-rasm. Taklif etilgan Mask R-CNN modelining arxitekturasi.

Tasvirlar xilma-xil hamda murakkab bo'lganligi sababli, yagona konvolyutsion neyron tarmoq tasvir xususiyatlarini yetarli darajada ajratib bera olmaydi. Taklif etilayotgan chuqur neyron tarmoqning asosi sifatida ResNet-50 arxitekturasidan foydalanilgan va tasvirlardan obyekt xususiyatlarini ko'p o'lchovli tarzda ajratib olish uchun FPN tarmoqqa integratsiya qilingan va xususiyatlar xaritasini yaxshiroq hosil qilishga yordam bergan.

5-jadval

Taklif qilingan model bo'yicha standard COCO metrika natijalari

Epoch	IoU obyektni aniqlash			IoU obyektni segmentlash			F1 qiymati
	AP	*AP@0.5*	*AP@0.75*	*AP*	*AP@0.5*	*AP@0.75*	
5	9.8	11	8.9	8.7	10.5	7.6	0.57
10	24.1	27.1	21.2	20.4	23.5	17.9	0.65
20	35.7	43.9	33.1	33.5	41.2	29.8	0.72
50	45.6	54.26	40.91	41.4	50.92	36.83	0.89

Ishlab chiqilgan model o'qitishlardan so'ng Standart COCO metrikalarida samarali natijalarga erishdi. IoU baholash me'zoni bo'yicha AP 45.6, AP (0.5 chegara qiymat) va AP (0.75 chegara qiymat) mos ravishda 54.26 va 40.91 bo'ldi. IoU segmentatsiyasi bo'yicha, AP, AP@0.5 va AP@0.75 natijalari 41.4, 50.92 va 36.83 bo'ldi. F1 ballining yakuniy natijasi 0.89 ya'ni 89% aniqlikni ko'rsatgan. Bu natijalar taklif qilingan model yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi.



14-rasm. Taklif qilingan modelning natijasi.

Dissertatsiya ishining **«Avtomatlashgan o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarga raqamli ishlov berish algoritmlari va geoma'lumotlar bazasi modelini ishlab chiqish»** deb nomlangan to'rtinchi bobida, masofadan zondlash ma'lumotlari asosida yerdan foydalanishni kuzatish dasturining spektral indekslar kutubxonasi va geoma'lumotlar bazasi modeli yoritilgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi hududlarda meliorativ kuzatuv jarayonlari uchun iMetos stansiyasi sensorlari va ma'lumotlarni almashish API usullari, avtomatlashtirilgan o'lchash tizimlarida foydalanilgan sensorlar va ulardan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash algoritmlari hamda sensorlardan tarmoqlari ma'lumotlarini uzatish va hududning gidrogeologik-meliorativ holatini interaktiv vizualizatsiya interfeysi keltirilgan. Masofadan zondlash uchun mo'ljallangan qurilmalar, sun'iy yo'ldosh vositalari, uchuvchisiz uchish qurilmalari va dronlar maxsus aktiv yoki passiv sensorlar bilan jihozlangan bo'lib, ushbu sensorlar har xil to'lqin uzunligida yer qoplami bo'yicha diskret va uzluksiz turdagi ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Bir nechta kanallarga ajratilgan va yig'ilgan ma'lumotlarning dastlabki ishlov berilgan ko'rinishi rastrli ma'lumotlar ko'rinishida shakllanadi. Geoma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi elementlari jadvallar, vektorli ma'lumotlar, rastrli ma'lumotlar va topologiyalardan tashkil topadi. Quyida spektral indekslarni shakllantirishning umumiy modeli keltirilgan.

$$S_i \in R(\lambda_j), M(R(\lambda_j)) \tag{6}$$

bu yerda, S_i – spektral indekslar, $i = 0.....n$, $R(\lambda_j)$ – mos to'lqin uzunligidagi aks ettirish qiymatlari, $j = 1.....n$, $M(R(\lambda_j))$ – λ_j – kanallar bo'yicha matematik kombinatsiya yoki formula. Xususiy holda 2 ta kanal va ularning matematik kombinatsiyasidan iborat bo'lgan spektral indeksni ko'rib o'tamiz.

$$S_0 = \frac{R(\lambda_1) - R(\lambda_2)}{R(\lambda_1) + R(\lambda_2)} \tag{7}$$

bu yerda, $R(\lambda_1)$ – 1-kanal uchun aks ettirish qiymatlari, $R(\lambda_2)$ – 2-kanal uchun aks ettirish qiymatlari, S_0 – vegitatsiya indeksi. Ushbu formula yordamida hududning NDVI indeksini hisoblash mumkin.

Tadqiqot ishida geoma'lumotlar va masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish, intellektual yechimlar orqali raqamli qishloq xo'jaligi uchun xizmatlarni taqdim qiluvchi interaktiv geoportal funksional tuzilmasi va dasturiy majmuasini ishlab chiqish muhim vazifalarda biri hisoblanadi. Har bir dasturiy majmua bir nechta modullardan tashkil topgan bo'lib, katta

ma'lumotlar va murakkab tuzilmali qatlamlardan iborat ma'lumotlar bazasi infratuzilmasini tashkil qiladi. Shu sababli, dissertasiya doirasida ishlab chiqilayotgan geoportal ma'lumotlar bazasi umumiy arxitekturasi quyidagicha ifodalangan (15-rasm). Sensorlardan olingan ma'lumotlar o'lchash qurilmalardan kelgan ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasida saqlaydi. Bunda hududning atrof-muhit holatini monitoring qilib boruvchi iMetos stansiyasi sensorlari va hududning meliorativ va tuproq sharoitini kuzatuvchi datchiklar ma'lumotlarini sql jadvallar asosida yoki ayrim hollarda .csv formatida saqlash imkoniyatini beradi. Bunda real vaqt rejimida o'lchanadigan atrof-muhit parametrlari *sensors_data* jadvaliga, oldindan meliorativ ekspeditsiya mutaxassislari tomonidan o'lchangan va yig'ilgan ma'lumotlar *datchik_data* jadvallariga saqlab boriladi (16-rasm).



15-rasm. Hududning geomalumotlari va multispektral tasvirlarini saqlaydigan geoportal ma'lumotlar bazasining umumiy sxemasi.



16-rasm. Sensorlardan ma'lumot olish va saqlash jrayonining umumiy algoritm blok-sxemasi.

Hududning atrof-muhit, tuproq va suv sharoitlariga oid ma'lumotlarini yig'ish uchun tadqiqot ishida avtomatlashgan o'lchash qurilmasi sifatida iMetos stansiyasidan foydalanilgan. Bu tizimning integratsiya arxitekturasi turli komponentlarning o'zaro uzviy aloqasiga asoslangan bo'lib, unda ma'lumotlar oqimi datchik (sensor) darajasidan foydalanuvchi dasturi darajasigacha ketma-ket tarzda uzatiladi. Ushbu arxitektura iMetos stansiyalarining turli muhit parametrlarini real vaqt rejimida o'lchash, ularni bulutli muhitda saqlash va qayta ishlash, so'ngra API orqali tashqi tizimlarga uzatish imkonini beradi (17-rasm).



17-rasm. Qurilma ma'lumotlarini API bilan integratsiyalash arxitekturasi.

Avtomatlashtirilgan o'lchash qurilmalari va datchiklardan yig'ilgan birlamchi ma'lumotlar odatda tozalanmagan holda yig'iladi. Umuman olganda har qanday sensorlar va qurilmalardan ma'lumotlarni yig'ish jarayoni sodda va murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qaralayotgan hududning ko'lami, ishlatiladigan sensorlar yoki yaxlit avtomatlashtirilgan o'lchash stansiyalarining sonidan kelib chiqib ma'lumotlarni yig'ish bosqichlari har xil tashkil qilinishi mumkin.

Dissertatsiya ishining **«Masofadan zondlash tasvirlari va geoma'lumotlarni geoportal infratuzilmasiga integratsiyalash hamda qishloq xo'jaligi yerlarining samaradorligini baholash»** deb nomlangan beshinchi bobida, raqamli qishloq xo'jaligi geoportali dasturiy majmuasining funksional tuzilmasi va tashkil etuvchi modullari tavsifi keltirilgan. Qolaversa, masofadan zondlash multispektral tasvirlari va geoma'lumotlar asosida yerdan qayta foydalanish indeksini hisoblash algoritmi va dasturiy ta'minoti, hududning masofadan zondlash ma'lumotlarini geoaxborot modeligi integratsiya qilish mexanizmi va algoritmini ishlab chiqish bosqichlari hamda Xorazm viloyati hududi misolida qishloq xo'jaligi yerlari samaradorligini baholash va sinov natijalari qiyosiy tahlili keltirib o'tilgan.

Mazkur tadqiqot ishi bajarilishi davomida raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini interaktiv taqdim qilish, qishloq va suv xo'jaligida yerlardan oqilona foydalanish, avtomatlashgan o'lchov qurilmalari, multispketral tasvirlar va hudud geoma'lumotlarini raqamli ishlash asosida raqamli qishloq xo'jaligi geoportalining dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan. Raqamli qishloq xo'jaligi geoportali

geoma'lumotlar, masofadan zondlash, iqlim, yer resurslari va hosildorlik ma'lumotlarini birlashtiruvchi, tahlil qiluvchi va foydalanuvchilarga interaktiv tarzda taqdim etuvchi axborot tizimi hisoblanadi (18-rasm).



18-rasm. Raqamli qishloq xo'jaligi geoportali dasturiy majmuasining funksional tuzilmasi.

Dasturiy majmua bir nechta funksional modullarni o'z ichiga oladi va quyidagi to'rt pog'onali funksional arxitekturaga ega:

1) ma'lumotlarni yig'ish, shakllantirish va yuklash moduli;
2) geoma'lumotlar bazasi moduli;
3) analitika, hisoblash va integratsiya moduli;
4) geoportal xizmatlarini taqdim etish moduli.

Ma'lumotlarni shakllantirishda turli manbalardan kelgan ma'lumotlarni yagona koordinata tizimiga (WGS84, UTM va boshqalar) keltirish, tasvirlarni spektral diapazonlar bo'yicha moslashtirish va standart formatlarga (GeoTIFF, JPEG2000, CSV, JSON va h. k.) konvertatsiya qilish, sensor ma'lumotlarini vaqt oraliqlarida birlashtirish va ma'lumotlar bazasiga mos shaklga keltirish talab etiladi.

Barcha manbalardan olingan ma'lumotlarni yagona standart formatda saqlash orqali, keyingi tahlil va modellash bosqichlari uchun toza, moslashtirilgan va sinxronlashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratiladi. O'z navbatida ma'lumotlarni yuklash va tayyorlash jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa inson omilini kamaytiradi va tizim samaradorligini oshiradi.

Tahlil, hisoblash va integratsiya moduli multispektral tasvirlarni tahlil qilish, sifatni yaxshilash, vegitasion indekslarni hisoblash, hamda sun'iy intellekt modellari yordamida yerdan foydalanish samaradorligini baholash va geoportal tizimiga natijalarni integratsiya qilishni amalga oshiradi. Ushbu modul raqamli tasvirlarni qayta ishlashdan tortib, yakuniy analitik xaritalar hosil qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni avtomatlashtiradi. Tadqiqot ishida yerning qayta tiklanish potensiali indeksi (*RPI*) tabiiy va antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelgan stress holatlaridan so'ng, yer resurslarining, xususan, qishloq xo'jaligi maydonlarining ekologik va

iqtisodiy holatini tiklash imkoniyatini baholovchi integral ko'rsatkichini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan (19-rasm).



19-rasm. «Data fusion» usuli yordamida yerning qayta tiklanish potensiali indeksini hisoblash algoritmi va natijasi.

Integrallashgan samaradorlik ko'rsatkichini hisoblashda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy samaradorligi uchun sensor ma'lumotlari, vegitatsiya indekslari hamda yerning qayta tiklanish indeksi natijalariga ko'ra kompleks agroekologik indeks (KAI) taklif etilgan:

$$K\,AI = \propto \cdot RPI_{norm} + \beta \cdot EVI_{norm} + \gamma NDVI_{norm} \quad (8)$$

bu yerda: α, β, γ – vazn koeffitsientlari, ularning yig'indisi 1 ga teng ($\alpha + \beta + \gamma = 1$).

Tajriba asosida: $\alpha = 0.5$, $\beta = 0.3$, $\gamma = 0.2$. Har bir indeks normallashtiriladi:

$$X_{norm} = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (9)$$

Normallashtirilgan qiymatlar 0 dan 1 gacha oraliqda bo'ladi. Shu tarzda, KAI qiymati 0-1 oralig'ida o'zgaradi, bu yerning umumiy agroekologik samaradorlik darajasini (6-jadval) bildiradi.

6-jadval

Baholash mezonlari

KAI qiymati	Baholash darajasi	Izoh
0.00 – 0.25	Past samaradorlik	Sug'orish yoki melioratsiya talab etiladi
0.26 – 0.50	O'rta samaradorlik	Qisman o'simlik qoplami, o'rtacha hosildorlik
0.51 – 0.75	Yaxshi samaradorlik	Yaxshi sug'orilgan va unumdor hududlar
0.76 – 1.00	Yuqori samaradorlik	O'ta sog'lom o'simliklar, barqaror agroekotizim

XULOSA

"Geoma'lumotlar va masofadan zondlash tasvirlariga raqamli ishlov berish usuli, algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqish" mavzusidagi dissertatsiya ishida olingan natijalar bo'yicha quyidagi nazariy va amaliy xulosalar keltiriladi:

1. Masofadan zondlash multispektral tasvirlari, geoma'lumotlar va avtomatlashgan o'lchash qurilmalaridan olingan hududga tegishli sensor ma'lumotlarini raqamli ishlash, ishlab chiqilgan model va algoritmlarni yagona interaktiv geoportalga birlashtirish orqali yaratilgan tizim raqamli qishloq xo'jaligi xizmatlarini tashkil qilishda bir qator afzalliklar va qulayliklarni taqdim qildi. Ushbu tizim qishloq xo'jaligi yerlarini meliorativ va koinotdan kuzatish orqali kompleks tahlil qilish, yerdan foydalanishni tasniflash, kontur chegaralarini aniqlashda inson mehnatini kamaytirish, monitoring qilish samaradorligi, ekin maydonlari mahsuldorligini oshirish kabi yo'nalishlarda qaror qabul qilishga imkon yaratdi.
2. Tadqiqot ishida masofadan zondlash multispektral tasvirlariga raqamli ishlov berish va geoaxborot texnologiyalariga asoslangan holda qishloq xo'jaligi yerlari holatini baholashning ko'p bosqichli tahlil usuli ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv tasvirlar, sensorlar ma'lumotlari, multispektral indekslash va geointellektual tizimdan foydalanib qishloq xo'jaligini raqamlashtirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, ishlatilgan va ishlatilmagan yerlarning samaradorligini bashoratlashda, kerakli resurslarni samarali ishlatish rejasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.
3. Sentinel-2 platformasi va uchuvchisiz uchish qurilmalaridan (UAV) olingan multispektral masofadan zondlash tasvirlariga dastlabki ishlov berish algoritmlari va dasturiy vositasi ishlab chiqildi, bu tasvirlarni fazvoiy va radiometrik tuzatish jarayonlarining aniqligini 10-12% gacha oshirish imkonini berdi.
4. Sun'iy yo'ldosh orqali olingan past va o'rta darajada aniqlikdagi tasvirlar sifatini yaxshilashning kengaytirilgan konvolyutsion neyron tarmoqlariga asoslangan modeli va algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv keng ko'lamli sun'iy yo'ldosh orqali olingan tasvirlar sifatini yaxshilash orqali tasvirlardagi muhim ma'lumotlarni, ayniqsa tasvirlardagi ekin maydonlari kontur chegaralari aniqligini 1,1 baraborgacha (10 foizgacha) oshirishga imkon yaratdi.
5. Masofadan zondlash tasvirlaridan ekin maydonlarini chegaralarini aniqlashning sun'iy intellektga asoslangan modeli va algoritmi ishlab chiqildi va ekin maydonlarini belgilash samaradorligi oshirildi. Ishlab chiqilgan model standard COCO metrikalari va F1 baholash ko'rsatkichi bo'yicha 89% aniqlikni ko'rsatgan. Natijada ekin maydonlarini konturlash jarayonining avtomatlashtirilishi, inson omili aralashuvining kamayishi, katta maydonlardagi monitoring jarayonlarining tezlashishi va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi raqamli agroxaritalar sifatining oshishiga olib keldi.
6. Tasvirlarni intellektual tasniflash va segmentlash bo'yicha chuqur o'qitish texnologiyalariga asoslangan CNN, ResNet, U-Net va bilimlarni transferlash yondashuvi asosida masofadan zondlash tasvirlarini o'qitish va tahlil qilish modellari tadqiq qilingan holda sun'iy yo'ldosh tasvirlarida yerdan foydalanishni tasniflash uchun modifikatsiyalangan TL-ResUnet neyron arxitekturasi va modeli ishlab chiqildi. Natijada, turli spektral diapazondagi kosmik, aerofoto va dron

tasvirlarida agroekotizim elementlarini avtomatik aniqlash, ekinlar qoplami, yaylovlar, suv havzalari kabi yetti xil turdagi sinflarni tasniflash va hosildorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Bunda modelning barcha sinflar bo'yicha IoU ko'rsatkichi 81% ni, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarni tasniflash aniqligi 93% ni tashkil qildi.

7. Avtomatlashgan o'lchash qurilmalari, jumladan iMetos stansiyasi va maxsus sensorlardan yig'ilgan hududning atrof-muhit, tuproq, meliorativ va gidrologik parametrlari bo'yicha olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash algoritmlari, katta hajmli masofadan zondlash tasvirlariga raqamli ishlov berish hamda vegitatsiya indesklarini hisoblash orqali hududlarda yerning qayta tiklanish indeksini hisoblash va samaradorlikni baholash imkoniyati yaratildi. Bunda multispektral tasvirlar yordamida masofadan monitoring qilish, o'lchash qurilmalaridan olingan ma'lumotlarni raqamli ishlash orqali qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini tahlil qilish samaradorligini 10-15% ga oshirishga erishildi.

8. Dissertatsiyada belgilangan hududni kompleks tahlil qilish, hududni tasniflash, yerning samaradorlik xususiyatlarini aniqlovchi indekslarni hisoblash va taqdim qilinadigan geoportal xizmatlarini ko'rsatishda foydalanish uchun murakkab geoma'lumotlar bazasi strukturasi ishlab chiqilgan. Hududning atributiv ma'lumotlari, multispektral tasvirlar, sensorlardan olingan ma'lumotlar, analitik tahlillar va natijalar, vektorli qatlamlar ma'lumotlari hamda indekslash natijalarini o'zida saqlaydigan PostgreSQL/PostGIS ga asoslangan ma'lumotlarni saqlashning relatsion modeli yaratilgan. O'z navbatida tadqiqot ishida multispektral va giperspektral kanallardan foydalangan holda hududnig tahlil qilishning spektral indekslar kutubxonasi va ularning tavsiyaviy hisoblash formulalari keltirilgan.

9. Dissertatsiyada umumiy natija sifatida, masofadan zondlash va geoma'lumotlarni geoportal infratuzilmasiga integratsiyalash asosida qishloq xo'jaligi samaradorligini baholash texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda veb-GIS va bulutli hisoblash muhitida ishlovchi interaktiv geoportal tizimi yaratildigan. Ushbu tizim masofadan zondlash multispektral tasvirlari, sensorlar ma'lumotlari, geoaxborot texnologiyalari va sun'iy intellekt algoritmlari yordamida yerning hosildorlik samaradorligini aniqlash, yer degradatsiyasini baholash kabi oddiy foydalanuvchilar va mutaxassislar uchun geoportal xizmatlarini taqdim qilish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqilgan modellar amaliy joriy etilishi qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish, hosildorlikni bashoratlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini bergan.

Mazkur dissertatsiya raqamli agrogeotizimlar, masofadan zondlash, geoaxborot tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash orqali barqaror qishloq xo'jaligini boshqarishning yangi ilmiy yo'nalishini shakllantirgan bo'lib, o'zining nazariy yangiligi, amaliy ahamiyati va metodologik yechimlari bilan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasiga muvofiq dolzarb ilmiy natijalarni taqdim etadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.T.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ

КУЧКОРОВ ТЕМУРБЕК АТАХОНОВИЧ

РАЗРАБОТКА МЕТОДА, АЛГОРИТМОВ И ПРОГРАММНОГО КОМПЛЕКСА ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ ГЕОДАННЫХ И ИЗОБРАЖЕНИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ

05.01.04 - Математическое и программное обеспечение вычислительных машин, комплексов и компьютерных сетей

АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ (DSc)

Ташкент 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора технических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером NoB2024.2.DSc/T786.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-сайте Учёного совета (www.tuit.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Джуманов Жамолжон Худайкулович** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Кабулов Анвар Василович** доктор технических наук, профессор
	Мухамедиева Дилноз Тулкуновна доктор технических наук, профессор
	Бабажонов Элмурод Сатимбаевич доктор технических наук, доцент
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Защита диссертации состоится на заседании Учёного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий в часа: 14⁰⁰, «25» декабря 2025 года. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, дом 108. Тел.: (+99871) 238-64-89; факс: (+99871) 238-65-52; эл. почта: tuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий им. Мухаммада ал-Хоразмий (регистрационный номер № 385). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, дом 108. Тел.: (+99871) 238-65-44).

Автореферат диссертации разослан «03» декабря 2025 года.
(протокола рассылки № 35 от «01» 12 2025 года)

М.М. Мусаев
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Э.Ш. Назирова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Дж.Б. Султанов
Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы исследования. В последние годы во всём мире обработка мультиспектральных и гиперспектральных изображений, полученных с помощью спутниковых систем и беспилотных летательных аппаратов (UAV), а также разработка геоинтеллектуальных программных комплексов на основе цифровой обработки данных, искусственного интеллекта и геоинформационных технологий приобретают важное значение в различных отраслях экономики, включая мониторинг окружающей среды, прогнозирование погоды, градостроительное проектирование, транспорт и сельское хозяйство. Особенно актуальны задачи интеллектуального анализа геоданных и данных дистанционного зондирования для решения проблем землепользования в сельском хозяйстве, дистанционного определения границ и классификации посевных площадей, мониторинга сельскохозяйственных культур, оценки индекса потенциала восстановления земель, а также прогнозирования необходимости использования ресурсов для конкретных территорий. Решение указанных задач требует научно обоснованных и практических подходов. В связи с этим в развитых странах активизируются исследования, направленные на разработку новых методов, алгоритмов и программных комплексов в данной области. В частности, значительные работы и исследования по разработке приложений на основе данных дистанционного зондирования, обработке мультиспектральных изображений и созданию интерактивных геопорталов на базе геоинформационных технологий проводятся в Германии, Чехии, Испании и Швейцарии, а также в Великобритании, США, Японии и Китае.

На мировом научно-теоретическом уровне ведутся исследования по интеллектуализации процессов обработки геоданных за счёт разработки математических, алгоритмических и программных моделей, основанных на технологиях дистанционного зондирования и геоинформационных системах в рамках формирования цифровой информационной инфраструктуры. Основное внимание уделяется интеграции сенсорных сетей и алгоритмов глубокого обучения в процесс анализа данных дистанционного зондирования, работе с большими объёмами пространственных данных, а также созданию геоинтеллектуальных систем.

В Узбекистане особое внимание уделяется повышению эффективности цифровых сервисов в сельском хозяйстве путём анализа и цифровой обработки геоданных и сложно структурированных изображений дистанционного зондирования с применением технологий искусственного интеллекта и алгоритмов компьютерного зрения, алгоритмов обработки данных, полученных автоматизированными измерительными устройствами, а также внедрения геоинформационных технологий. При этом основными задачами являются предварительная обработка мультиспектральных и гиперспектральных изображений, распознавание границ посевных полей на основе данных дистанционного зондирования, классификация и сегментация

землепользования. Кроме того, развитие теории интеллектуальной обработки высокоточных и сложно структурированных изображений, совершенствование архитектур и моделей сверточных нейронных сетей, а также разработка интерактивного геопортала для представления геоданных и его внедрение в отрасль позволяют существенно повысить эффективность предоставления цифровых сельскохозяйственных услуг.

В пункте б Постановления[1] Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2021 года № PQ-4996 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» определены задачи по применению технологий искусственного интеллекта в приоритетных отраслях и секторах, в т. ч. в сфере сельского хозяйства, при мониторинге состояния почвы и сельскохозяйственных культур на основе данных дистанционного зондирования земли. Также для повышения эффективности сельского и водного хозяйства, экологии, градостроительства и других сфер в стране предусмотрено исполнение задач, обозначенных в Указе[2] Президента Республики Узбекистан от 30 августа 2019 года № PF-5806 «О развитии космической деятельности в Республике Узбекистан», связанных с развитием деятельности в области дистанционного зондирования земли и навигационных систем. Кроме того, Постановление[3] Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2023 года № PQ-257 «О мерах по внедрению передовых цифровых технологий в сферу сельского хозяйства» определяет комплекс задач, направленных на широкое внедрение современных цифровых технологий в отрасль, эффективное использование земельных и водных ресурсов, а также создание межведомственных информационных систем мониторинга состояния сельскохозяйственных культур. В рамках данных задач предусмотрено внедрение платформы для оказания услуг по анализу геоинформационных технологий и космических изображений, создание системы независимого мониторинга выделенных посевных площадей и сельскохозяйственных культур для производителей и кластеров на основе анализа мультиспектральных космических снимков, раннее выявление проблем и разработка рекомендаций по повышению урожайности.

Соответствие приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан IV «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Зарубежные исследователи, профессора высших учебных заведений и

---

[1] Постановления Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2021 года № PQ-4996 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» (https://lex.uz/docs/-5297046)

[2] Указе Президента Республики Узбекистан от 30 августа 2019 года № PF-5806 «О развитии космической деятельности в Республике Узбекистан» (https://lex.uz/en/docs/-4494500)

[3] Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2023 года № PQ-257 «О мерах по внедрению передовых цифровых технологий в сферу сельского хозяйства» (https://lex.uz/uz/docs/-6553993?ONDATE=15.08.2025%2000)

ведущие учёные научно-исследовательских институтов проводят широкий спектр научных работ в направлениях анализа геоданных и цифрового сельского хозяйства на основе изображений, полученных со спутников и беспилотных летательных аппаратов. Например, по данным базы Scopus и портала SCImago, в научных изданиях издательства MDPI (Multidisciplinary Digital Publishing Institute) за последнее десятилетие (2014-2024 гг.) опубликованы около 30000 статей[1] по направлению дистанционного зондирования, из них более 1000 – аналитические статьи и свыше 26 000 – научные. В направлении геоинформационных технологий и анализа геоданных опубликованы более 11000 научных работ[2], из них 765 аналитических статей, 9873 научных статей и 126 тезисов, представленных на научных конференциях. Из приведённых данных следует, что по тематике данной диссертации в мире проводится значительное количество научных исследований. Основная доля исследователей приходится на учёных из стран Европы, США, Китая и Японии.

Зарубежные ведущие учёные выполняют исследования по широкому кругу тематик. В частности, профессор Венского технического университета (Австрия) Dr. Wolfgang Wagner занимается мониторингом состояния почвы и гидрогеологических изменений земной поверхности на основе данных дистанционного зондирования и геоданных. Ведущий научный сотрудник Колумбийского университета (США) Dr. Christopher Small исследует анализ геоданных, спектральные характеристики при классификации данных дистанционного зондирования и мониторинг градостроительных процессов. Профессор Университета Южной Каролины Dr. John R. Jensen осуществляет исследования в области экологического мониторинга. Профессор Бостонского университета Dr. Magaly Koch проводит исследования по гидрогеологическому и геологическому мониторингу, наблюдению за водными ресурсами и процессами вегетации на основе данных дистанционного зондирования. Профессор Швейцарского федерального технологического института Цюриха Dr. Lars T. Waser занимается моделированием и мониторингом процессов вегетации, наблюдением за состоянием сельскохозяйственных культур, лесов и окружающей среды на основе космических и UAV-изображений. Профессор Университета естественных наук г. Праги (Чехия) Dr. Jitka Kumhalova проводит исследования по получению изображений Sentinel-2 и UAV, их предварительной цифровой обработке, мониторингу вегетационных процессов сельскохозяйственных культур, а также состоянию и влажности почвы.

Перечисленные выше исследования и научные подходы охватывают широкий круг задач, связанных с мониторингом окружающей среды, классификацией землепользования, анализом изменений растительного покрова, мониторингом глобальных климатических изменений, изучением

---

[4] https://www.mdpi.com/search?q=remote+sensing&year_from=2014&year_to=2024
[5] https://www.mdpi.com/search?q=GIS&year_from=2014&year_to=2024

водных ресурсов, а также обработкой мультиспектральных и сложно структурированных данных дистанционного зондирования в цифровом сельском хозяйстве. В данных работах рассматриваются вопросы применения технологий искусственного интеллекта, глубоких нейронных сетей и геоинформационных технологий для повышения экономической эффективности.

Настоящая диссертация также направлена на решение вопросов, которые остаются недостаточно изученными в вышеперечисленных научных исследованиях. А именно: на разработку интеллектуальных методов цифровой обработки мультиспектральных данных дистанционного зондирования, анализ геоданных, обработку информации, полученной от автоматизированных измерительных устройств, а также применение технологий искусственного интеллекта для повышения качества и экономической эффективности цифровых сельскохозяйственных услуг на территориях республики.

